

ALISHER NAVOIY QASIDALARI: ADABIY TA’SIR VA NOVATORLIK

Nazzora BEKOVA*
Hikmet KORAS**

Annotatsiya: Sharq mumtoz adabiyotida Olloh va olam aloqadorligi, bog‘liqligi talqiniga bag‘ishlangan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Nosiruddin Rabg‘uziyning «Qissasi Rabg‘uziy», Nosir Xusravning «Ro‘shnoinoma» dostoni, Xusrav Dehlaviyning «Olam ul-ilm» va Abdurahmon Jomiyning «Jilo ur-ruh» kabi qasidalarida mavzular uzviy ketma-ketlikda (yil fasllari, to‘rt unsur, to‘qqiz falak, o‘n ikki burj) tasvirlanadi. Bu esa mavzular silsilasi xuddi shu tizimda yaratilgan «Ruh ul-quds»ning boy adabiy manbalar zaminida yuzaga kelganidan dalolat beradi. Mazkr maqola ayni shu masala tadqiqiga bag‘ishlangan.

Kalit So‘zlar: *Sharq mumtoz adabiyoti, Qissasi Rabg‘uziy, Ro‘shnoinoma, Xusrav Dehlavi, Nosir Xusrav.*

From Azerbaijan Karabakh to Konya Karabakh: Holiness in the Context of Public Diplomacy

Abstract: Yusuf Khos Hajib's "Kutadgu Bilig", Nasiruddin Rabguzi's "Kissasi Rabguzi", Nasir Xusrav's "Roshnoinoma", Xusrav Dehlavi's "Olam ul -ilm" and Abdurrahman Jami's odes such as "Jila ur-ruh" describe the themes in an organic sequence (seasons, four elements, nine constellations, twelve constellations). This indicates that the series of topics was created on the basis of rich literary sources of "Ruh ul-Quds" created in the same system. This article is dedicated to the study of this issue.

Key Words: *Eastern classical literature, Qissasi Rabguzi, Roshnoinoma, Xusrav Dehlavi, Nasir Xusrav.*

Sharq mumtoz adabiyotida Alloh va olam aloqadorligi, bog‘liqligi talqiniga bag‘ishlangan juda kep asarlarda yuqorida sanab etilgan mavzular uzviy ketma-ketlikda (yil fasllari, tert unsur, 9 falak, 12 burj) tasvirlanadi. Bu “Ruh ul-quds”ning boy ilohiy va adabiy sarchashmalar zaminida yuzaga kelganidan dalolat beradi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” masnaviyasi, Nosir Xusravning “Reshnoinoma” dostoni, Amir Xusrav Dehlaviyning “Olam ul-ilm” va Abdurahmon Jomiyning “Jilo ur-ruh” kabi qasidalarini fikrimizning yorqin dalilidir. Bu asarlarda har bir narsada Ollohning qudrati namoyon belishi, U yaratgan mulki borliq mavjudotlarida zanjir halqalari kabi bir-biriga uzviy bog‘lanib, turfa jihatlardan o‘zaro aloqadorlikda amal qilishi hodisasiga alohida urg‘u beriladi. Bu aloqadorlikning asosiy negizi barcha narsalar Inson va uning ruhi Mutlaq tomon taraqqiy etib borishi uchun yaratilganligi haqidagi ilohiy-irfoniy qarashlarga borib taqaladi.

Jumladan, “Avesto”da osmon jismlariga alohida ahamiyat berilgan hamda ularga ilohiy qudratning me’jizasi sifatida qaralgan.

Qadimgi ajdodlarimizning nujumiy tasavvurlari ta’siri “Ruh ul-quds” dagi en ikki burjning birma-bir tasvirida ham yaqqol kezga tashlanadi:

Ba burji digar Aqrab ba xunbish ovardy,
Chu kaxdume, ki kunad xona dar qadim bino.
Farozi burxi digar soxti kamonxona,
Ki charx tiri balo afkanad seyi dunyo [46. 21-23].

Boshqa bir burjda Aqrabni harakatga keltirding, Chayondayki, qadimiy uslubda eziga xona bino qilsin. Boshqa bir burjni baland Kamonxona qilib yasadingki, charx undan dunyoning turli taraflariga balo tig‘ini yog‘diradi, deya ulug‘ shoir Ollohning qudratini ta’rif va tavsif etadi.

Mazkur baytlarda burjlarning nomi bilan ularning xalq tasavvuridagi xosiyatlari va erdagi voqealar bilan aloqadorligi hisobga olinib, chiroyli tashbehtar hosil qilingan.

Olloh - olam aloqadorligi, bog‘liqligining ixcham tasvirini «Qisasi Rabg‘uziy»da eqiyimiz [49.12]. Mumtoz adabiyotda juda ko‘p e’tirof etilgan mazkur fikrlarni Nosiriddin Rabg‘uziy muhtasar bayon qilgan. Bunda YAratuvchining cheksiz aql-zakovat sohibi ekanligi va buyuk yaratuvchanlik xususiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi.

* Professore, f.f.d (DSc), Buxoro Davlat Universiteti

** Prof. Dr., Niğde Ömer Halisdemir Üniversitesi, hikmetkoras@ohu.edu.tr

İslomiy qarashlar va Ollah-olam munosabatlarini ruhiy-vajdiy tafakkur qilish jarayonida tugʻilgan mushohadalarga tayanib, baʼzi dostonlarda olamning tuzilishiga doir maxsus boblar ajratilgan. Jumladan, etti sayyora va en ikki burjga maxsus bob bagʻishlagan Yusuf Xos Hojib «Qutadgʻu bilig» dostonida en ikki burjni etti sayyoradan ajratib kersatadi hamda ularning ayrimlari juft-juft, ayrimlari esa toq ekanligini qayd etib, ularning uchtasi – bahorgi, uchtasi yozgi, uchtasi – kuzgi va nihoyat uchtasi – qishki yulduzlar deb eʼtirof etadi. Dunyo tert unsuridan tashkil topgani singari bularning ham uchtasi olov, uchtasi – suv, uchtasi – shamol va uchtasi – tuproq ekanligi haqida badiiy mushohada yuritadi.

Amir Xusrav Dehlaviyning «Olam ul-ilm» qasidasida ham xuddi shunday tasvir usuli ustuvor:

Zehra tabʼam dar vabul az peshi in aqrabvashon,

Z-on chu aqrab xeshtanro xud qafoe mezanam [45. 829].

«Sittai zaruriya» tarkibidagi birinchi qasidaning «Qasidai «Ruh ul-quds»i dar tavhidi Bori taolo» deb nomlanishining ham muhim asoslari bor. Ilohiy-islomiy qarashlarga muvofiq, Allohning yakkayu yagona YAratuvchi ekanligini madh etish uchun asarlarning dastlabki kirish qismlari «Ollah taolo tavhidi»ga bagʻishlangan.

Jumladan, Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»sining maxsus bir kirish qismi «Dar tavhidi Bori» («Bori taolo tavhidi haqida») deb nomlanadi va yuqorida taʼkidlaganimizdek, jamiki narsa va hodisalarning muayyan bir uygʻunlikda doimiy harakatda ekanligi yagona buyuk Ruhning meʼjizaviy qudrati hosilasi sifatida talqin etiladi:

CHu gul sad pora kun xudro dar in bogʻ,

Ki natvon tandurust omad bad-in bogʻ [48.26].

«Ruh ul-quds» qasidasida ham gul timsollari tasviriga keng erin beriladi. Ulugʻ shoir rayhon, sunbul, nargis, lola, yosmin kabi gul timsollari orqali suluk ahlining koʻnglida porlagan ilohiy nur va uning turli goʻzal shakllarda jilva qilishiga ishora qiladi.

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da Nosir Xusrav haqida maʼlumot berganda faqat «Roʻshnoinoma» asarini tilga oladi[47, 78]. Adibning 592 baytdan iborat bu masnaviysi Ollah-olam aloqadorligi, bogʻliqligi talqiniga bagʻishlangan belib, unda diniy, falsafiy, maʼrifiy, ijtimoiy-axloqiy qarashlar yuksak shoirona nazokat bilan kuylanadi. Kuzatishlar asosida shunga guvoh beldikki, mazkur masnaviyning gʻoyalar va mavzular olami mundarijasi Alisher Navoiyning «Sittai zaruriya» qasidalar turkumiga juda exshaydi.

“Sittai zaruriya” “Reshnoinoma”ga “Alloh-olam aloqadorligiga doir jamiki narsa-hodisalarni uzviy ketma-ketlikda tasvirlash nuqtai nazaridan yaqin turadi. Ammo Navoiyning maqsadi bu masalalarni faqat yoritishgina emas, balki Alloh-olam aloqadorligini taʼminlovchi Haq qudrati yashiringan ilohiy tizimlar chegarasini va ularning bir-biriga bogʻliqligini aniq, ravshan ifodalashdir. Qasidalar kepincha daqiq maʼnolarni, ishoralarni nozik anglovchi kishilar saviyasiga moslab, yuksak did bilan yaratilgan. “Sittai zaruriya” turkumi ham ana shunday yuksak badiiy asardir. CHunki shoir “Sittai zaruriya” – “Olti zarurat” orqali bir necha oltilik tizimiga ishora qiladi.

“Sittai zaruriya” tarkibidagi birinchi qasidaning, yaʼni umumiy oltilik tizimining birlamchi asosini Ruh tashkil etadi. SHuning uchun asar “Ruh ul-quds” deb nomlangan. Mutlaq Ruh va undan ajralgan ruhning yana Unga qaytish (uruj) asoslari ifodalangan. Ruh quvvasidagi 6 jihat, asos Fariduddin Attorning “Ilohiynoma”sidagi “Ruhga murojaat qilib degani” qismida birma-bir izohlanadi: “Ruh-ajoyib bir qushsan, na erdasan, na osmonda, balki Tangri taolo huzuridasan. Sening asosingda oltita belgi bor, ammo ularning har biri bir jahon-alohida bir olam. Har biri-bir sohibqiron, bir qudrat.

1. Biri Nafs belib, uning joyi sezgi aʼzolaridir.
2. Biri Nafsi ammora belib, ziddiyatlar, nifoq shundan.
3. Biri Aqlidir, aql muvofiqlikni, mantiqni boshqaradi.
4. Biri Ilmdir, maʼlumot, bilim teplash bilan band.

5. Biri Faqrdir, fano-yeqlik istar hamisha.
6. Biri Tavhiddir, YAagona zot istar va Unga intilar doim” [1.12].

“Olti zarurat” tarkibidagi birinchi qasidaning “Ruh ul-quds” deb nomlanishining asosiy manbai ham shudir. “Ruh ul-quds” qasidasi – “Hayrat ul-abror” dostoni singari dasturiy–muqaddimaviy asar. YUqorida sanab etilgan ruhning olti quvvasi haqida “Sittai zaruriya” turkumidagi qasidalarining har birida qayta-qayta (yangicha tasvir usulida) izohlanadi. Chunki Alisher Navoiy Olloh-Olam aloqadorligining barcha sabablarini ruhning ana shu olti jihatiga tegishli deb biladi. Bu oltilik tizimi tarkibiy qismlari ez navbatida yana bir necha oltilik tizimiga belinadi, ya’ni Inson va Koinot, Inson va Mavjudot, Inson va Ilohning ezaro bog‘liqligi olam olti ilohiy kun mahsuli (“Ruh ul-quds”da bu xususda ma’lumot beriladi), olti “nodir jihati koinot va faqr ruknlari (“Aynul - hayot” va «Tuhfat ul-afkor» qasidasida bunga keproq urg‘u beriladi), olti iymon arkoni tarkibiy qismlari (“Qut ul-qulub”da arkoni iymon shartlari keng izohlanadi), jism qafasida ruhning sog‘lom taraqqiy etishining olti tibbiy asosi (“Minhoj un-najot”da bu masalaga doir asosli ishoralar bor), namoz faroizidagi olti xorij va doxil farzlar (“Nasim ul-xuld” va “Qut ul-qulub»da bu masalalar tasviriga kengroq ahamiyat berilgan) bir-biriga bog‘liq ravishda bir ilohiy mohiyatga borib taqaladi va shu tariqa oltilik tizimi – “Sittai zaruriya” shakllanadi. Bu oltiliklarning barchasi umumiy bir ilohiy maqsadga – odam jismi qafasidagi ruhni Mutlaq Ruh tomon taraqqiy etib borishini ta’minlovchi uzluksiz tadrijiy jarayonga xizmat qiladi. Erni kelganda ta’kidlash joizki, jismda ruhning sog‘lom taraqqiy etishining olti tibbiy asosiga doir qator asarlar yaratilgan. SHarq tabobatida olti zarur narsa (sittai zaruriya) degan istiloh bor. Bu haqda Ibn Sino, undan oldin va keyin etgan olim-tabiblar ham yozishgan. Ana shunday tabiblardan biri XV asrda Xurosonda yashab etgan Yusufiy Heraviydir. U «Risolai sittai zaruriya» asarida olti tibbiy asos haqida fikr yuritadi. Olti tibbiy zaruratga doir qarashlar «Hakimlar hikoyati», «Tabobat xazinasidur donalaridan» kabi risolalarda ham keng izohlangan.

Alisher Navoiy ezigacha etgan betakror tafakkur egalarining har biri ijodidagi eng ilg‘or xulosalarni teran anglab etdi va alohida-alohida xulosalarni yashash tajribasi orqali ijodiy ravishda bir o‘zanga birlashtirdi. SHuning uchun bu turkumni «Sittai zaruriya» deb nomladi. Chunki Haqqa etishning asosi sog‘lom Ruhdir, ulug‘ shoir esa turkumdagi har bir qasidada ruhiy-ma’naviy poklanish tasviriga alohida ahamiyat beradi. Iso kabi Ruhga aylanish shoir lirik qahramonining ezgu orzusidir. «Xazoyin ul-maoniy»da boshqa ilohiy nomlarga nisbatan Iso Masihning behad kep tilga olinishining asosiy sababi ham shunda.

«Sittai zaruriya»ni yozishdan maqsad Ruhning qudratini madh etish edi. Mazkur turkum tarkibidagi har bir qasidada faqru fano ulug‘lanadi. Bu yuksak maqomga etgan kishiga esa Haqdan ezga hech qanday zarurat qolmaydi. Ulug‘shoirning bu xususdagi umumiy xulosasini «Favoyid ul-kibar»ning 506-g‘azalida ham ko‘rishimiz mumkin.

Fanoiy mahz etar «Sittai zaruriya»,

Nedinki yeqqa zarurat emas bu nav’ oltov.

Ulug‘ Navoiy oltilik tizimi asosidagi aloqadorlik qonuniyatini «Sittai zaruriya» qasidalar turkumi g‘oyalari bag‘riga singdirgan. Qasidalar alohida-alohida olinganda mustaqil asar sifatida yuksak badiiy qimmat kasb etadi. Chunki turkum tarkibidagi olti qasidadan terttasi – «Tuhfat ul-afkor» Amir Xusrav Dehlaviyning «Daryoi abror» qasidasiga, «Qut ul-qulub» Anvari qasidasiga, «Minhojun najot» Xoqoniy va Anvari qasidalariga, «Nasimul ul-xuld» esa Xoqoniy qasidasiga javob, tatabbu’ tarzida yozilgan. Alisher Navoiy bu mashhur qasidalarining mavzui va shaklini saqlagan holda, ularni mazmunan rivojlantirib, yangi g‘oyalar, fikrlar, adabiy san’atlar orqali to‘ldirgan, yangi ruhdagi qasidalarni vujudga keltirib, o‘z san’ati va mahoratini namoyish etgan.

Yuqorida bildirilgan mulohazalar quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Hamdlar mazmuni faqat Ollohni madh etishga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, maqsadiga va etakchilik qilayotgan g‘oyaga ko‘ra farqlanadi. Mazkur jihatning o‘zi hamd yo‘nalishidagi

asarlarni shar'iy-targ'ibiy, ma'rifiy-targ'ibiy, ma'rifiy-badiiy, badiiy-ma'rifiy kabi turlarga bo'lib o'rganish asosini beradi.

2. Har bir asarni hamd bilan boshlash Navoiygacha ham mavjud edi. Ammo SHarq mumtoz adabiyotining biror bir namoyandasi ijodida bu an'ana yaxlit shaklda (farddan dostongacha) namoyon bo'lgan emas.

Alisher Navoiy SHarq devonchiligi ravnaqini mavzu-ma'no nuqtai nazardan muayyan bir tizimga soldi va har bir asarini Olloh hamdi bilan boshladi.

3. Ulug' shoir ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari ifodalangan hamd g'azallari va «Ruh ul-quds» qasidasini bevosita ilohiy-islomiy sarchashmalardan bahra olgan asar sifatida e'tirof etish mumkin. Ana shu nuqtai nazardan hamd g'azallar va «Ruh ul-quds» qasidasining badiiy tasvir uslubi bir-biriga juda yaqindir.

4. SHarq mumtoz adabiyotida Olloh va olam aloqadorligi, bog'liqligi talqiniga bag'ishlangan YUsuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nosiruddin Rabg'uziyning «Qissasi Rabg'uziy», Nosir Xusravning «Ro'shnoyinoma» dostoni, Xusrav Dehlaviyning «Olam ul-ilm» va Abdurahmon Jomiyning «Jilo ur-ruh» kabi qasidalarida mavzular uzviy ketma-ketlikda (yil fasllari, to'rt unsur, to'qqiz falak, o'n ikki burj) tasvirlanadi. Bu esa mavzular silsilasi xuddi shu tizimda yaratilgan «Ruh ul-quds»ning boy adabiy manbalar zaminida yuzaga kelganidan dalolat beradi.

5. Alisher Navoiy oltilik tizimi asosidagi aloqadorlik qonuniyatini «Sittai zaruriya» («Olti zarurat») qasidalar turkumi bag'riga singdirgan va Haqqa etishning asosi sog'lom Ruh bo'lgani uchun turkum tarkibidagi birinchi dasturiy-muqaddimaviy qasidani «Ruh ul-quds» deb atagan.

Turkum tarkibidagi qasidalar oltilik tizimi asosida birlashib, yaxlit sistemani tashkil etadi, alohida olinganda esa yuksak badiiy qiymatga ega har bir qasida mustaqil badiiy asar talablariga javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Attor Fariduddin Ilohiynoma.-Toshkent:YOzuvchi, 1994. –B.12
2. Bekova N. J., Muxtorova D. I. “AYN UL-HAYOT” QASIDASI, NASHRLARDAGI TAFOVUTLAR //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 5. – S. 737-745.
3. Bekova N. THE ANALYSIS OF MUKHTARA GAZALS OF NAVOI //SENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2022. – T. 14. – №. 14.
4. Bekova N. THE IMAGE OF A FLOWER IN SITTAI ZARURIYA //SENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2022. – T. 14. – №. 14.
5. Bekzoda N., Rakhmatova M. IN ALISHER NAVOI'S ODES, THE INTERPRETATION OF THE CONNECTION OF THE SEASONS WITH THE NINE STARS AND CONSTELLATIONS //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 15. – S. 400-404.
6. Bekova N. Alisher Navoiy adabiy tadqiqida faxriy hirotiy" radoyif ul-ash'or" asarining o'rni //Alisher Navo'i and 21 st century. – 2024. – T. 1. – №. 1.
7. Bekova N., Sayliyeva M. The interpretation of praise in the east literature //Nauchnaya diskussiya: voprosy filologii, iskusstvovedeniya i kulturologii. – 2015. – №. 12. – S. 147-151.
8. Jurayevna B. N. Potential of language and artistic art //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2019. – S. 63.
9. Jurayevna B. N., Rakhmiddinovna S. M. THE IMAGE OF A FLOWER IN SITTAI ZARURIYA //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY NAUCHNYY VESTNIK BUXARSKOGO GOSUDARSTVENNOGO UNIVERSITETA. – S. 179.

10. Jurayevna B. N., Kiyomiddinovna C. M. LIFE AND LITERARY HERITAGE OF ABDURAHMON TAMKIN BUKHARI //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – S. 159.
11. Jurayevna B. N. A WORTHY RESPONSE TO HAFIZ'S GHAZAL //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – S. 227.
12. Jurayevna B. N. A WORTHY RESPONSE TO HAFIZ'S GHAZAL //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – S. 227.
13. Jurayevna B. N. Navoiy gulshani //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – S. 147.
14. Nazora J. B. Potential of language and artistic art //POLISH SCIENCE JOURNAL (2019). – 2019. – T. 63.
15. Jurayevna B. N., Nigora K. Autonomous Ghazals Of Alisher Navoi //JournalNX. – T. 7. – №. 02. – S. 1-2.
16. Jurayevna B. N., Nuriddinovna X. N. Alisher Navoi's Interpretation Of Asmai Husna In Bilingual Poetry //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – S. 216-222.
17. Bekova N. THE ANALYSIS OF MUKHTARA GAZALS OF NAVOI //SENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2022. – T. 14. – №. 14.
18. Bekova N. THE IMAGE OF A FLOWER IN SITTAI ZARURIYA //SENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2022. – T. 14. – №. 14. Bekova N. THE IMAGE OF A FLOWER IN SITTAI ZARURIYA //SENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2022. – T. 14. – №. 14.
19. Bekzoda N., Rakhmatova M. IN ALISHER NAVOI'S ODES, THE INTERPRETATION OF THE CONNECTION OF THE SEASONS WITH THE NINE STARS AND CONSTELLATIONS //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 15. – S. 400-404.
20. Nuriddinovna X. N. UNIQUE TONES OF NAVOI-FANI'S POETRY //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 12. – S. 89-93.
21. Bekova N. NAVOIY-FONIYNING TURKIY VA FORSIY G ‘AZALLARIDA BADIY MAHORAT MASALASI //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. Conference Proceedings 1. – S. 114-121.
22. Bekova N. J. “G ‘AROYIB US-SIG ‘AR” DEVONI TARKIBIDAGI BIR G ‘AZAL TAHLILI: Nazora Jo ‘rayevna Bekova Buxoro davlat universiteti o ‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti Zarina Raxmiddinovna Sayliyeva Buxoro davlat universiteti o ‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o ‘qituvchisi Feruza Sohıb qızı Saidova Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti //Nauchno-prakticheskaya konferensiya. – 2021.
23. Bekova N. NAVOIYNING “NAVODIR USH-SHABOB” DEVONI NASHRLARIDAGI TARJE‘BANDLARNING MATNIY TAFOVUTLARI VA ULARNING G ‘OYAVIYBADIY TAHLILI: Nazora Bekova, BuxDU dotsenti Shahlo Halimova, BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ixtisosligi magistri //Nauchno-prakticheskaya konferensiya. – 2021.
24. KITABI D. R. İ. H. A. A. İLİM VE MARİFET NURLARI : dis. – Karabük Üniversitesi.
25. Bekova N. NAVOIY-FONIYNING TURKIY VA FORSIY G ‘AZALLARIDA BADIY MAHORAT MASALASI //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. Conference Proceedings 1. – S. 114-121.
26. Bekova N. J., Saylieva Z. R. " Devoni Foni": izdaniya i issledovaniya //Filologiya i lingvistika v sovremennom obshestve. – 2014. – S. 20-22.
27. Bekova N. Alisher Navoiy adabiy tadqiqida faxriy hirotiy" radoyif ul-ash'or" asarining o'rni //Alisher Navoi'i and 21 st century. – 2024. – T. 1. – №. 1.

28. Bekova N. NAVOIYNING “NAVODIR USH-SHABOB” DEVONI NASHRLARIDAGI TARJE’BANDLARINING MATNIY TAFOVUTLARI VA ULARNING G ‘OYAVIYBADIY TAHLILI: Nazora Bekova, BuxDU dotsenti Shahlo Halimova, BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ixtisosligi magistri //Nauchno-prakticheskaya konferensiya. – 2021.
29. Bekova N. J. “G ‘AROYIB US-SIG ‘AR” DEVONI TARKIBIDAGI BIR G ‘AZAL TAHLILI: Nazora Jo ‘rayevna Bekova Buxoro davlat universiteti o ‘zbek tili va adabiyoti kafedresi dotsenti Zarina Raxmiddinova Sayliyeva Buxoro davlat universiteti o ‘zbek tili va adabiyoti kafedresi o ‘qituvchisi Feruza Sohob qizi Saidova Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti //Nauchno-prakticheskaya konferensiya. – 2021.
30. Nazora J. B. Potential of language and artistic art //POLISH SCIENCE JOURNAL (2019). – 2019. – T. 63.
31. Bekova N. Alisher Navoiy she’riyatida xamd poetikasi //Toshkent: Fan. – 2006. – T. 148.
32. Jurayevna B. N., Nuriddinova X. N. Alisher Navoi's Interpretation Of Asmai Husna In Bilingual Poetry //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – S. 216-222.
33. Jurayevna B. N. Potential of language and artistic art //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2019. – S. 63.
34. Bekova N. THE ANALYSIS OF MUKHTARA GAZALS OF NAVOI //SENTR NAUCHNĬY PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2022. – T. 14. – №. 14.
35. Jurayevna B. N., Kiyomiddinova C. M. LIFE AND LITERARY HERITAGE OF ABDURAHMON TAMKIN BUKHARI //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – S. 159.
36. Jurayevna B. N. Navoiy gulshani //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – S. 147.
37. Juraevna B. N., Khudoyorova N. Mukhtara-an example of discovery and invention (on the example of Foni's poems) //European Journal of Molecular and Clinical Medicine. – 2021. – T. 8. – №. 1. – S. 1463-1469.
38. Jurayevna B. N. A WORTHY RESPONSE TO HAFIZ'S GHAZAL //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – S. 227.
39. Jorayevna B. N., Nigora K. Autonomous Ghazals Of Alisher Navoi //JournalNX. – T. 7. – №. 02. – S. 1-2.
40. Jurayevna B. N., Rakhmiddinova S. M. THE IMAGE OF A FLOWER IN SITTAI ZARURIYA //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY NAUCHNĬY VESTNIK BUXARSKOGO GOSUDARSTVENNOGO UNIVERSITETA. – S. 179.
41. Bekova N. Til imkoniyati va badiiy san’at //Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti”. – Buxoro. – 2014. – T. 3. – S. 81-88.
42. Bekzoda N., Rakhmatova M. IN ALISHER NAVOI'S ODES, THE INTERPRETATION OF THE CONNECTION OF THE SEASONS WITH THE NINE STARS AND CONSTELLATIONS //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 15. – S. 400-404.
43. Bekova N. J., Muxtorova D. I. “AYN UL-HAYOT” QASIDASI, NASHRLARDAGI TAFOVUTLAR //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 5. – S. 737-745.
44. Bekova N. THE IMAGE OF A FLOWER IN SITTAI ZARURIYA //SENTR NAUCHNĬY PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2022. – T. 14. – №. 14.

45. Dehlavi Amir Xusrav. Osori muntaxab. Dar chahor xild. Jildi chahorum. -Dushanbe: Irfon, 1975. –B.829
46. Navoiy Alisher. Ruhul-ruds. So‘zboshi, nasriy bayon, izoh va lug‘at bilan nashrga tayyorlovchilar R.Vohidov, N.Bekova. -Toshkent: O‘zbekiston, 2002. –B. 21-23.
47. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 17-tom. -Toshkent: Fan, 2001
48. Nizomii Ganjavi. Kulliyot. Dar panj jild. Jildi I. -Dushanbe: Irfon, 1983. –B. 26
49. Rabg‘uziy Nosiruddin Burhonuddin. Risasi Rabg‘uziy. Birinchi kitob. -Toshkent: YOzuchi, 1990. –B.12

